

Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish ko'nikmalarini oshirish maqsadida maxsus o'quv kursi tashkil etildi

// 16.10.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/xodimlarning-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-ko-nikmalarini-os>



Bugun "O'zkiyosanoat" AJda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish ko'nikmalarini oshirish maqsadida maxsus o'quv kursi boshlandi.

"Cert Academy Group" xalqaro trening tashkiloti bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan mazkur kursda ISO 37001:2016 xalqaro standartiga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurash choralari, uning kelib chiqish sabablari, jamiyat uchun oqibatlari, shuningdek, antikorrupsion menejmentning asosiy terminlari haqida tushunchalar berilmoqda.

Qolaversa, jamiyatda korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish, tashkilotning tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi menejment tizimlarining ichki auditini olib borishdagi ahamiyati haqida tushuntirilmoqda.





Maxsus o'quv kursi 3 kun davom etishi rejalashtirilgan.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati